

**GIJJALARGA QARSHI TA'SIR ETUVCHI DORIVOR O'SIMLIKLAR:  
DASTARBOSH, ACHCHIQ ERMON VA ODDIY BO'YMODORONNING  
FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA SINERGIYASI**

**Xusanov Umidjon Shokirjonovich , Xakimova Oygul Sobitali qizi**

*Andijon Davlat Tibbiyot Instituti,*

*E-mail: [xakimovaoygul00@gmail.com](mailto:xakimovaoygul00@gmail.com)*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 05.04.2026*

*Revised: 06.04.2026*

*Accepted: 07.04.2026*

**KALIT SO'ZLAR:**

*mahalliy o'simliklar,  
dastarbosh, achchiq  
ermon, oddiy  
bo'ymodoron, dorivor  
xususiyatlar,  
farmakologik  
xususiyatlar,  
flavonoidlar,  
alkaloidlar, efir  
moylari, gelmintoz,  
fitoterapiya,  
antgelmintik vositalar*

*Ushbu tezisda gelmintoz kasalliklariga qarshi samarali ta'sir ko'rsatuvchi mahalliy dorivor o'simliklar — dastarbosh, achchiq ermon va oddiy bo'ymodoronning biologik faol moddalari, ularning farmakologik xususiyatlari hamda o'zaro sinergik ta'siri o'rganilgan. Ushbu o'simliklar tarkibidagi flavonoidlar, alkaloidlar va efir moylari gelmintlarning nerv-mushak tizimiga ta'sir qilib, ularni falajlaydi hamda organizmdan chiqarilishiga yordam beradi. Kompleks qo'llanish natijasida ularning antgelmintik samaradorligi oshishi aniqlangan.*

**Asosiy qism**

Gelmintoz kasalliklari bugungi kunda keng tarqalgan bo'lib, ularni davolashda sintetik dori vositalari bilan bir qatorda fitoterapiya vositalariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Dorivor o'simliklar kam toksikligi, organizmga yumshoq ta'siri va kompleks biologik faolligi bilan ajralib turadi.

Dastarbosh o'simligi tarkibida alkaloidlar va flavonoidlar mavjud bo'lib, ular gelmintlarning nerv tizimiga ta'sir ko'rsatib, mushak faoliyatini susaytiradi va falajlanishga olib keladi. Achchiq ermon tarkibidagi tuyon va achchiq glikozidlar esa parazitlarning nerv impulslarini bloklab, ularning hayot faoliyatini izdan chiqaradi. Oddiy bo'ymodoron tarkibidagi biologik faol moddalar, xususan flavonoidlar va efir moylari ichak shilliq qavatini tiklaydi, yallig'lanishni kamaytiradi va boshqa o'simliklarning ta'sirini kuchaytiradi.

Mazkur o'simliklarning o'zaro kombinatsiyasi ularning sinergik ta'sirini yuzaga keltiradi. Bunda achchiq ermon va dastarbosh asosan gelmintlarni falajlovchi asosiy komponent sifatida namoyon bo'lsa, bo'yodoron yordamchi komponent sifatida ichak muhitini yaxshilaydi va faol moddalarning samarali ta'sir ko'rsatishiga sharoit yaratadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi kunga qadar ushbu uch o'simlikning aynan kompleks kombinatsiyasiga asoslangan yagona dori vositasi amaliyotda keng joriy etilmagan. Ushbu yo'nalishda yangi kombinatsiyalangan fitopreparat yaratish istiqbolli hisoblanadi.

Bundan tashqari, ushbu biologik faol moddalarni shamcha (suppozitoriy) shaklida qo'llash ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi. Suppozitoriy shakli orqali faol moddalarning to'g'ridan-to'g'ri so'rilishi ta'minlanadi, jigar orqali birlamchi metabolizm cheklanadi hamda mahalliy ta'sir kuchayadi. Natijada dori vositasining bioo'zlashtirilishi ortadi va terapevtik samaradorlik yuqori bo'ladi.

Shu sababli dastarbosh, achchiq ermon va oddiy bo'yodoron asosida yaratilgan kompleks fitopreparatni aynan shamcha shaklida ishlab chiqish gelmintoz kasalliklarini davolashda yangi va samarali yondashuv sifatida qaraladi.

#### **Xulosa**

Dastarbosh, achchiq ermon va oddiy bo'yodoron o'simliklari kompleks qo'llanganda yuqori anthelmintik samaradorlikka ega bo'ladi. Ularning tarkibidagi biologik faol moddalar gelmintlarga qarshi kuchli ta'sir ko'rsatib, davolash samaradorligini oshiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. Ўзбекистон флораси доривор ўсимликлари. – Тошкент: Фан, 2019.
2. Fitoterapiya asoslari / O'quv qo'llanma. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2020.
3. Dorivor o'simliklar kimyosi / O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018.
4. World Health Organization. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants. – Geneva, 2002–2010.
5. Bruneton Jean. Pharmacognosy, Phytochemistry, Medicinal Plants. – Paris: Lavoisier Publishing, 1999.
6. Trease George Edward, Evans William Charles. Trease and Evans Pharmacognosy. – 16th ed. – London: Elsevier, 2009.
7. Cowan Marjorie M.. Plant products as antimicrobial agents. – Clinical Microbiology Reviews, 1999.
8. Sofowora Adebayo. Medicinal Plants and Traditional Medicine in Africa. – Ibadan: Spectrum Books, 2008.

=====

9. Houghton Peter J., Raman A.. Laboratory Handbook for the Fractionation of Natural Extracts. – Springer, 1998.

10. European Medicines Agency. Herbal Medicinal Products Guidelines. – London, 2015.